


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

---

**«GIDROTEXNIKA INSHOOTRLARI»**

**fanidan amaliy ishlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma**



**5310100-Energetika (Gidroenergetika) ta'lif yo'nalishi  
talabalari uchun**

**Toshkent 2013**

**Tuzuvchilar:** Muxammadiyev M.M., Nosirov F.J., Paluanov D.T.

«Gidrotexnika inshootlari» fanidan amaliy ishilarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – Toshkent, ToshDTU, 2013.

Uslubiy qo'llanma 5310100-Energetika (Gidroenergetika) ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalariga mo'jallangan bo'lib, unda qurilish ishlarini hisoblash metodi, gidrotexnik inshootlarning turli qismlarini hisoblash va ularni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish nazarda tutilgan. Qo'llanmada gidrotexnik inshootlarga tegishli nazariy tushunchalar ham berilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-usluhiy kengashi qaroriga asosan nashrga tayyorlandi.

**Taqrizchilar:** **X. Fayziyev** – TAQI “Gidrotexnika inshootlari, zamin va poydevori” kafedrasи mudiri, t.f.n., dotsent,  
**O.X. Nizomov** – ToshDTU “Gidravlika va hidroenergetika” kafedrasи dotsenti, t.f.n.

## KIRISH

Mamlakatimizda suv xo'jaligi obyektlarini rivojlantirish uchun respublika miqiyosida ko'plab ishlar qilinmoqda.

Shuning uchun ham yuqori malaka va bilimga ega bo'lgan kadrlarga gidrotexnik inshootlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish uchun keng talablar qo'yilmoqda. Buning uchun esa bo'lajak bakalavr-gidroenergetiklar zamonaviy gidrotexnika qurilmalari va inshootlaridan xabardor bo'lishlari va ularning ratsional tiplarini tanlay bilishlari zarur.

O'quv qo'llanma 5310100-Energetika (Gidroenergetika) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga mos ravishda yozilgan.

O'quv qo'llanmada gidravlik, gidrotexnik va statik hisoblashlarni olib borish usullari ko'rilib. Mazkur qo'llanma nazariy, amaliy (hisoblash) va muddatli ma'lumotlar tashkil topgan bo'tib, talabalarning gidrotexnik inshootlarni to'g'ri tanlash, loyihalash va hisoblash ishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi hamda ularning kerakli adabiyotlar bilan ishlashini osonlashtiradi. Bundan tashqari gidrotexnik inshootlarni hisoblashda hisobga olinadigan qurilish ishlaridagi qurilish materiallarining asosiy tarkiblarini hisoblash usullari, shu jumladan tipik hisoblash ishlari olingan variantlar asosida boshqa usullar bilan solishtirish imkoniyatiga ham egadir.

O'quv qo'llanmaning birinchi bo'limi professor Farix Madarimovich Raximboevning «Gidrotexnika inshootlari va qishloq xo'jalik melioratsiyasi» o'quv qo'llanmasi asosida tuzilgan va kengaytirilgan.

# **GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR VA ULARNING GURUHLARGA BO'LINISHI**

Xalq xo'jaligining turli ehtiyojlari uchun suv resurslaridan foydalanish va gidrotexnika inshootlari deb ataladigan maxsus muhandislik inshootlari yordamida suvning zararli ta'siriga qarshi kurashishni o'rGANADIGAN fan gidrotexnika inshootlari deb ataladi.

GidroineliORATIV ixtisoslikka tatbiqan gidrotexnika inshootlari ikki guruhga: daryo inshootlariga va tizim ichidagi (sug'orish shoxobchalaridagi) inshootlarga bo'linadi.

**1. Daryo inshootlariga** suv omborlari, suv olish inshootlari, gidrostansiyalar, baliq o'tkazadigan va kema o'tkazadigan shluzlar, qirg'oqlarni ihota qilish inshootlari, suv tindirgichlar va boshqalar kiradi.

**2. Tizim ichidagi (sug'orish shoxobchalaridagi) inshootlarga:**

- rostlash inshootlari (quloglar, suv taqsimlash va suv to'sish inshootlari, gidrouzellar);
- suv o'tkazish inshootlari (akveduklar, dyukerlar, tunellar, trubalar, novlar);
- tutashtiruvchi inshootlar (sharsharalar, tezoqarlar) kiradi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari kanallarda yo'l inshootiari, tindirgichlar, kema yuradigan shluzlar, gidroelektr stansiyalari va boshqa inshootlar ko'riliishi mumkin.

Barcha gidrotexnika inshootlari (shu jumladan gidromeliorativ inshootlar ham) xizmat qilish muddatiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- obyektni ishlatischda foydalilanligidagi doimiy inshootlar;
- obyektni qurish davrida yoki ayrin inshootlar (ihota turon, qurilish suv tashlamasi, vaqtinchalik aylanma kanallar va boshqalar) ni remont qilishda foydalilanligidagi vaqtinchalik inshootlar.

O'z navbatida meliorativ tizimning doimiy inshootlari asosiy va ikkinchi darajali inshootlarga bo'linadi.

Ishi to'xtatilgandan keyin sug'orish tarmog'iga suv berishi butunlay to'xtaydigan yoki anchagina qisqaradigan inshootlar (to'g'onlar, rostlagichlar, doimiy sug'orish kanallariga qurilgan inshootlar) asosiy inshootlarga kiradi.

Ishining to'xtatilishi uzel ishiming samaradorligiga ta'sir qilmaydigan inshootlar (remont zatvorlari, xizmat ko'prikhalar va hokazolar) ikkinchi darajali inshootlarga kiradi.

O'zining ishlab chiqarish samaradorligi va xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga qarab meliorativ tizimlardagi doimiy gidrotexnika inshootlari quyidagi kapitallilik sinflariga bo'linadi (1-jadval).

### **Meliorativ tizimlar gidrotexnika inshootlarning sinflari**

*1-jadval*

Inshoot xizmat ko'rsatadigan melioratsiyalanadigan yerlar maydoni, ming ga	Zaxi qochiriladigan yerlar	Doimiy inshootlarning klasslari
Sug'oriladigan yerlar	Zaxi qochiriladigan yerlar	Asosiy inshoot
400 va undan ortiq 50 dan 400 gacha 50 dan kam	- 50 va undan ortiq 50 dan kam	II III IV
		III IV IV

Inshootlarni loyihalashda mavjud tipaviy loyihalardan mumkin qadar ko'proq foydalanish kerak. Bunday loyihalar sug'orish va partov suvlar tarmoqlarida ko'rildigan (suv sarfi  $10 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha bo'lgan) gidrotexnika inshootlari uchun ishlab chiqilgan va maxsus albomlarda keltirilgan.

Inshootlarni individual loyihalashda quyida keltirilgan hisoblashlarni bajarish ko'zda tutiladi:

1. Gidravlik hisoblashlar.
2. Filtrasion hisoblashlar.
3. Statik hisoblashlar.
4. Texnik-iqtisodiy hisoblashlar.

## I BOB. QURILISH ISHLARINI HISOBBLASH

Qurilish ishlari deb yangi inshootlarni qurish, mavjud inshootlarni rekonstruksiya yoki ta'mirlash ishlariga aytildi. Qurilish ishlab chiqarishi, qurilish transport mashinalari va jihozlari, qurilish materallari, buyumlari, xomashyolarni ishlab chiqaruvchi energetika zaxiralariga yetkazib beruvchi bir qancha sanoat tarmoqlari bilan uzviy bog'langan. Odatda, qurilish ishlarini doimiy malakali ishchilar tarkibiga, qurilish mashinalari va jihozlariga hamda doimiy ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan qurilish tashkilotlari bajaradi. Yirik miqiyosdagi obyektlarni uzoq mudatli qurilishida ushbu qurilayotgan inshootlar atrofida vaqtinchalik baza ham yaratilishi mumkin.

Qurilishning asosiy usuli – bu buyurtmaning shartnomasi va talabi bo'yicha bajariluvchi deb atalmish maxsus qurilish tashkilotlari tomonidan qurilish ishlarining bajarilish usulidir. Ba'zi hollarda qurilish ishlari xo'jalik usulda bajariladi, ya'ni obyektning qurilishiga ehtiyoji bo'lgan xo'jalik yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Qurilishni olib borishning doimiy tizimli usuli tashkiliy tayyorgarlik davrini mumkin qadar qisqartirishga, ishni yuqori sifatda moddiy texnik resurslarni eng kam xarajatda, qurilishni esa mexanizatsiyalashgan va industirlashgan kompleks talablari darajasida bajaradi. Qurilish ishlarini xo'jalik hisobida olib borishda esa qurilish ishlab chiqarishning barcha elementlarini har safar yangidan tashkil etishga to'g'ri keladi. Bu esa bugungi talablarga javob bermaydi va salbiy texnik-iqtisodiy natijalarga olib keladi.

Barcha qurilish materiallarinig asosiy tarkiblarini shartli ravishda bir nechta guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Fizikaviy takibi: zichlik, hajmiy, massasi va g'ovakligi. Ushbu tarkiblardan qurilish materiallarining boshqa muhim qurilish tarkibi nisbatlari aniqlanadi.

2. Mexanik tarkibi: mustahkamligi, qattiqligi, yemiriluvchanlik, va h.k.

3. Qurilish materiallarining suv ta'siriga va past temperaturaga nisbatan tarkibi: suvning yutishlari, namlik va bug'lantirish gidroskopligi, suvni o'tkazmasligi, suvga va sovuqqa chldamliligi.

4. Materiallarning issiqlik ta'siriga nisbatan tafsilotlarini beruvchi tarkibi: issiqlik o'tkazuvchanlik, yog'ibnabdoshligi va o'rta chidamliligi.

Bulardan tashqari, alohidagi qurilish materiallariga xos bo'lgan maxsus tarkiblar ham mavjud. Kislota, turli xil tuzlar va gazlarga chidamliligini bildiruvchi kimyoviy (korroziya) ta'sirlarga bardoshli materiallar.

### 1.1. Tuproqning hajmiy og'irligini hisoblash

Tuproqning hajmiy og'irligi deb, tabiiy namlik va tuzilishdagi tuproq bir birlik hajmining og'irligiga aytildi va u  $\gamma_w$  harfi bilan belgilanadi. O'lchov birligi [gr/sm<sup>3</sup>]. Tuproq skeletining hajmiy og'irligi quyidagi hisoblash ishi bilan aniqlanadi:

$$\gamma_c = \frac{\gamma_w \cdot W}{1 + W}.$$

Tuproqning hajmiy ogirligini aniqlash ushun bir nechta usul mavjud bo'lib, eng qulay bo'lgan metodlardan biri kesuvchi halqa metodidir. Bu metodga binoan hajmiy og'irlilik ichki  $\phi$  50 mm. dan kam bo'limgan va balandligi  $h=30$  mm bo'lgan yupqa sterjenli metall halqa yordamida aniqlanadi.

Halqaning ichki devor tozalari tozalanadi va halqa kesuvchi cheti bilan pastga qaratib quyiladi. O'tkir pichoq bilan halqaning tashqi  $\phi$  ga teng tuproq ustuni qirqib olinadi. So'ngra halqa ehtiyyotlik bilan tuproq ustiga o'tkaziladi. Halqa to'ldirilgach, tuproq pichoq bilan kesiladi, halqa ichidagi tuproqning ikkala cheti tekis va o'zaro parallel bo'lishi lozim. Tuproq to'ldirilgan halqa aniqligi 0,01 gr bo'lgan texnik tarozida o'lchanadi. Shundan so'ng tuproq halqadan itarib chiqariladi va markaziy qismidan har biri 10 g keladigan ikkita namuna olinadi. Tuproqning hajmiy og'irligi quyidagi formula bilan hisoblab chiqariladi:

$$\gamma_w = \frac{g_1 - g_0}{V}; \quad V = \frac{\pi d^2}{4} \cdot h,$$

bunda  $g_1$  – halqaning tuproq bilan birligida og'irligi [gr];  $g_0$  – suz halqaning og'irligi [gr];  $V$  – halqaning hajmi (tuproqning hajmi);

$d$  – diametri;  $h$  – halqaning balandligi.

Har bir namuna uchun ikkita parallel hajmiy og'irlilik aniqlash amali bajariladi, ular orasidagi farq  $0,03 \text{ gr/sm}^3$  dan oshmasligi lozim. Tuproq hajmiy og'irligining o'rtacha qiymatini yaxshilab,  $0,01$  aniqliqgacha hajmiy og'irlilik hisoblanadi.

1.1-jadval

**Topshiriq variantlari**

Variantlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$d, \text{ mm}$	33	39	42	38	47	43	32	35	45	55
$h, \text{ mm}$	21	23	25	27	29	31	33	35	22	28
$g_0, \text{ gr}$	5	6	7	9	11	6	15	13	16	19
$g_{1(I)}, \text{ gr}$	100	110	115	120	130	135	140	145	150	160
$g_{1(II)}, \text{ gr}$	105	115	120	125	135	145	150	155	160	165

1.1-jadvaldagi topshiriq variantlariga asosan hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

Berilgan:  $d = 50 \text{ mm}$ ;  $h = 30 \text{ mm}$ ;  $g_0 = 10 \text{ gr}$ ;  $g_{1(I)} = 145 \text{ gr}$ ;

$g_{1(II)} = 150 \text{ gr}$ .

$$V = \frac{\pi d^2}{4} \cdot h = \frac{3,14 \cdot 5^2}{4} \cdot 3 = 58,875 \text{ ,}$$

$$\gamma_w = \frac{g_{1(I)} - g_0}{V} = \frac{145 - 10}{58,875} = 2,293 \text{ ,}$$

$$\gamma_w = \frac{g_{1(II)} - g_0}{V} = \frac{150 - 10}{58,875} = 2,378$$

$$\gamma_{avr} = \frac{\gamma_w(I) + \gamma_w(II)}{2} = \frac{2,293 + 3,378}{2} = \frac{4,671}{2} = 2,335 \left[ \text{gr/sm}^3 \right].$$

**1.2. Tuproqning zichligini hisoblash**

Tuproq zichligi deb, tuproq massasini unung hajmi nisbatiga aytildi va  $\rho$  harfi bilan belgilanadi. Tuproq zichligi quyidagi hisoblash ishi bilan aniqlanadi:

$$\rho = \frac{m}{W}.$$

Tekshirilayotgan namunadan bo'lak qirqib olish qiyin bo'lganda, ya'ni tekshirilayotgan tuproq juda zich yoki qirqib olinganda to'kilib ketadigan bo'lganda zichlik parafinlash metodi bilan aniqlanadi.

Materialdan kamida  $30 \text{ sm}^3$  hajmdagi kerakli bo'jak qirqib olimadi va turtib chiqib turgan qismlari olib tashlanadi. Namuna  $0,01 \text{ gr}$ . gacha aniqliqdagi texnik tarozida o'lchanadi. Bu og'irliqni jurnalga yozib quyiladi. O'lchab olingach, namuna ingichka ip bilan bog'lanadi va bir necha sekundga eritilgan toza parafinga solinadi, odatda  $t = 57^\circ\text{C}$ . Parafin sovigach, namuna o'lchanadi -  $m_2$ . Namuna suvga solinadi va parafinlashgan namunaning suvdagi og'irligi aniqlanadi -  $m_{ob}$ . Parafinlangan namunaning hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$W_0 = \frac{m_2 - m_{ob}}{\rho_v}; \quad \rho_v = 1000 \text{ kg/m}^3.$$

1. Parafinli qobiqning hajmi aniqlanadi:

$$W_n = \frac{m_1 - m_2}{\rho_n}.$$

2. Namunaning zichligi aniqlanadi:  $W_0 - V$  parafina

$$\rho_0 = \frac{m_1}{W_0 - V}.$$

1.2-jadval

### Topshiriq variantlari

Variant -lar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$m_1$ , $gr$	450	475	500	525	550	575	600	625	650	675
$m_2$ , $gr$	500	525	535	565	576	596	626	649	675	700
$m_{ob}$ , $gr$	200	210	220	230	240	250	260	270	280	

$\rho_b$ , $gr/sm^3$	0,6	0,65	0,69	0,73	0,86	0,95	1,0	1,09	1,19	1,35
$\rho_n$ , $gr/sm^3$	0,5	0,55	0,66	0,69	0,81	0,89	0,93	1,0	1,06	1,21

1.2-jadvaldagagi topshlriq variantlariga asosan hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

Berilgan:  $m_1 = 500 \text{ gr}$ ;  $m_2 = 510 \text{ gr}$ ;  $m_{\text{os}} = 240 \text{ gr}$ ;  $\rho_a = 1 \text{ gr/sm}^3$ ;  
 $\rho_n = 0,9 \text{ gr/sm}^3$ .

$$W_b = \frac{510 - 240}{1} = 270 \text{ sm}^3,$$

$$W_n = \frac{510 - 500}{0,9} = 11,1 \text{ sm}^3,$$

$$\rho_0 = \frac{500}{270 - 11,1} = \frac{500}{258,9} = 1,932 \text{ gr/sm}^3.$$

### 1.3. Tuproqning suv shimlluvchanligini hisoblash

Suv shimuvchanlik deb, tuproqlarning suvni shimish va ushlab turish qobiliyatiga aytildi. Suv shimuvchanlik namunaning suvni shimishdan oldin va keyingi og'irliklari orasidagi farq bilan aniqlanadi va material hajmi  $V$  ga misbatan % larda ifodalanadi. Suv shimuvchanlik vazniy va hajmiy suv shimuvchanliklarga bo'linadi:

$$B_b = \frac{G - G_1}{G} \cdot 100\%; \quad B_b = \frac{G - G_1}{V} \cdot 100\%;$$

bunda  $G_1$  – tuproqning doira holatidagi massasi;  $G$  – tuproqning tuyilgan holatidagi massasi;  $V$  – tuproq hajmi.


Vazniy va hajmiy suv shimuvchanliklar o'rtasida quyidagicha nisbat mavjud:

$$\frac{B_b}{B_b} = \frac{G - G_1}{V} : \frac{G - G_1}{G} = \frac{G_1}{V} = \rho_0,$$

$\rho_0$  – tuproqning quruq holatidagi hajmi:

$$B_b = B_b \cdot \rho_0.$$

Avval namuna doimiy m - gacha quritiladi,  $t = 105^{\circ} - 110^{\circ}C$  gacha shkafda quritiladi, so'ngra aniqlash 0,01 gacha bo'lgan texnik tarozida o'lchanadi, namunalarining suv shimuvchanligini aniqlash uchun ular asta-sekin suvgaga cho'ktirilib, yoki vakuumda suvgaga uyiqtiriladi (1.1-rasm).



1.1-rasin

Tajriba boshlanganidan keyin 3 sutka o'tgach, namuna o'lchanadi. Namuna suv bilan to'liq to'yintirilganini tekshirish uchun, u yana 24 soatga suvgaga cho'ktiriladi, qayta o'lchanganda uning farqi 1 % dan oshmasligi kerak.

### 1.3-jadval

#### Topshiriq variantlari

Variantlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
$G_1, gr$	100	110	120	130	140	150	160	170	180	190
$G_0, gr$	120	135	150	165	180	200	225	255	280	300
$V, sm^3$	50	55	60	65	70	75	80	85	90	95

1.3-jadvaldagagi topshiriq variantlariga asosan hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

Berilgan:  $G_1 = 140 \text{ gr}$ ;  $G_0 = 155 \text{ gr}$ ;  $V = 80 \text{ sm}^3$ .

$$B_b = \frac{155 - 140}{140} \cdot 100 \% = 10,78 \%,$$

$$B_0 = \frac{155 - 140}{80} \cdot 100 \% = 18,45 \%,$$

$$\frac{B_0}{B_b} = \frac{G_0}{V} = \frac{140}{80} = 1,75 (\text{gr} / \text{sm}^3).$$

## II BOB. SHLYUZ-ROSTLAGICHLARNI GIDRAVLIK HISOBBLASH

Kanalning tarmoqlanadigan joylariga qulolqlar (shlyuz-rostlagichlar) quriladi. Ular kanal tarmoqlariga suv sarfini taqsimlash, sarfni rostlash yoki suv berishni butunlay to'xtatishga xizmat qiladi. Bunda suv sarfini hisobga olib borish ham mumkin bo'ladi.

Gidravlik hisoblash yo'li bilan qulolq tuynuklarining kanalga ham, qulolqa ham shikast yetkazmaydigan darajada belgilangan suv sarfini o'tkazishni ta'minlaydigan o'chamlari aniqlanadi, shuningdek, zatvorlar yordamida suv o'tkazishni o'zgartirib turish (ko'paytirish, kamaytirish) grafigi belgilanadi.

Meliorativ tarmoqdagi qulolqlar ko'pgina hollarda suvga ko'milgan keng ostonali suv o'takgishdan iborat bo'ladi.

Oqovaning suvga ko'milish sharti quyidagi tengsizlik bilan ifodalanadi:

$$h_n > 0,8 \quad H_0 \text{ bo'lganda suv o'tkazgich ko'miladi,}$$

$$h_n < 0,8 \quad H_0 \text{ bo'lganda suv o'tkazgich ko'milmaydi.}$$

bunda  $h_n$  – pastki byefdagi suvning inshoot ostonasi ustidagi chuqurligi;  $H_0$  – suv kelish tezligini hisobga olgan holda suv o'tkazgichdagi suv bosimi;  $v_0$  – suv o'tkazgichga suvning kelish tezligi;  $N$  – suvning ostonadagi bosimi.


Oqovadagi suv bosimi

$$H_0 = H + \frac{v_0^2}{2g} .$$

Suvga ko'milmagan suv o'tkazgichning suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = \delta \cdot m \cdot \sigma_n B \sqrt{2g H_0^{3/2}} .$$

bunda  $\delta$  – inshootga suv oqimining kelish burchagini hisobga oladigan tuzatma koeffitsient (2.1-jadval).




2.1-rasm. Suvga ko'milgan suv o'tkazgich joyining hisobiga oid  
(rasmdagi  $h_0$  ni  $h_a$  deb o'qilsin)

2.1-jadval

Suv oqimining kelish hurchagi	$0^0$	$30^0$	$45^0$	$60^0$	$75^0$	$90^0$
$\delta$	1,00	0,97	0,95	0,93	0,90	0,86

$t$  – suv sarfi koeffitsienti (2.3-jadvaldan olinadi);  $V$  – suv o'tkazgichning to'la eni.

$\sigma_n = f\left(\frac{h_a}{H_0}\right)$  – suv o'tkazgichning ko'milishiga qarab suv sarfining o'zgarishini hisobga oladigan koeffitsient (2.4-jadvaldan olinadi).



2.2-rasm. Ustunchalarning plandagi shakli

### 2.2-jadval

#### Suv o'tkazgichning suvgaga ko'milish koeffitsienti (A.R.Berezinskiy bo'yicha)

$h_n / H_0$	0,8 0	0,8 2	0,8 4	0,8 6	0,8 8	0,9 0	0,9 2	0,9 4	0,9 5	0,9 6	0,9 7	0,9 7
$\sigma_n$	1,0 0	0,9 9	0,9 7	0,9 5	0,9 0	0,8 4	0,7 2	0,7 0	0,6 5	0,5 9	0,5 0	0,4 0

$\varepsilon$  – yon tomondan sifilish koeffisient. U E.A.Zamarinning quyidagi formulasidan aniqlanadi:

$$\varepsilon = 1 - \alpha \frac{H_0}{H_0 + b},$$

bunda  $v$  – bitta prolyotning eni;  $\alpha$  – ustuncha oldingi yog'ining shakliga qarab qabul qilinadigan koeffisient. Unnig qiymatlari 2.4-jadvalda keltirilgan.

### 2.3-jadval


#### Suv sarfi koeffitsienti $t$

$\frac{P}{H}$	0,0	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6
$m$	0,385	0,373	0,366	0,361	0,356	0,353	0,350
$\frac{P}{H}$	0,7	0,8	0,9	1,0	2,0	6,0	$\infty$
$m$	0,347	0,345	0,343	0,342	0,333	0,325	0,320

### 2.4-jadval

#### Koeffisient $\alpha$ ning qiymatlari

Ustuncha va tirkakning shakli	Sxema (2.2-rasm)	$\alpha$
to'g'ri to'rtburchaklik	$\alpha$	0,20
Yarim aylana	$b$	0,10
O'tkirlangan	$v$	0,05



2.3-rasm. Hisobiy sxemalar: a) oqova joyi ko'milgan; b) shchit ostidan oqib chiqqan suv o'tkazgich joyini ko'mmagan

### 2.5-jadval

#### Zatvorlar prolyotlarining standart o'lchamlari

Yassi zatvorli kichik prolyotlar, m	0,40	0,60	0,80	1,00	1,25	1,75	2,00	2,25
Segment shaklidagi zatvorli katta prolyotlar, m	2,50	3,00	3,50	4,00	4,50	5,00	6,00	7,00

Agar suv zatvor ostidan o'tkaziladigan bo'lsa, u holda oqib chiqqan suvdan suv o'tkazgich suvgaga ko'milishi ham, ko'milmasligi ham mumkin. Bunda qulqodagi suv sarfi zatvor qanday balandlikka ko'tarilishiga bog'liq bo'ladi va oqib chiqqan suv suv o'tkazgichni ko'mmagan holda quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \delta \varphi \alpha \cdot B h_3 \sqrt{2 g \cdot (H_0 - \alpha h_3)},$$

bunda  $h_3$  – zatvorning suv o'tkazgich ostonasidan ko'tarilish balandligi;  $\alpha$  – suv oqimining vertikal siqilish koeffitsienti. U 2.6-jadvaldan aniqlanadi.

### 2.6-jadval

#### Suv oqimining vertikal siqilish koeffitsienti

$h_3 / H$	0,1	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,7
$\alpha$	0,615	0,620	0,625	0,630	0,645	0,660	0,690

Zatvor ostidan oqib chiqqan suv suv o'tkazgichni ko'mganda suv sarfi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \delta\mu B h_3 \sqrt{2 g z_0} ,$$

bunda  $z_0$  – suv kelishi tezligini hisobga olgan holda suvning yuqorigi va pastki byefdagi balandliklarining farqi, m:

$$z_0 = H - h_n + \frac{v_0^2}{2g} .$$

$\mu$  – suv sarfi koeffitsienti, u 2.7-jadvaldan olinadi.

2.7-jadval

### Suv har xil sharoitda kirgan hollardagi sarf koeffitsienti

Suvning kirish sharoiti	Sarf koeffitsienti	
	2 m <sup>2</sup> gacha ho'lganda	2 m <sup>2</sup> dag ortiq bo'lganda
Vertikal siqilish bilan	0,80	0,80
Vertikal va yon siqilish bilan	0,70	0,75
Har tomonlama siqilish bilan	0,60	0,65

Tuynukning suvgaga ko'milish sharti

$$h > h_{sig}'' ,$$

bunda  $h_{sig}''$  – suvning siqilishi bilan bog'liq chuqurlik;

$$\text{bunda } h_{sig}'' = 0,5 h_{sig} \left[ \sqrt{1 + \frac{8Q^2}{gB^2 h_{sig}^3}} - 1 \right] , \quad h_{sig} = \alpha h_3 .$$

### 1-nazorat ishlari

1. Quloq tuynugining eni va tuynuklar soni aniqlansin.
2. Loyihalangan quloqning suv o'tkazish imkonini aniqlansin.

Zatvorning belgilangan ko'tarilish balandligi va pastki byefning qabul qilingan chuqurligi  $h$  da zatvorning ko'tarilish balandligi  $h_3$  va pastki byefning chuqurligi  $h_n$  2.8-jadvalda o'nta variantda berilgan.

### Qulogni gidravlik hisoblash. Topshiriq variantlari

Nº var	$Q, \text{m}^3/\text{s}$	N, m	R, m	$h_n$ , m	$v_0, \text{m/s}$	Ustunning shakli	$\beta$ gra d	$h_3$	$h_2$
1	10,0	1,5	0,2	0,9	0,75	to'g'ri	90	0,4	0,6
2	15,0	2,0	0,3	1,5	0,8	to'rtburchaklik	75	0,6	1,4
3	20,0	2,2	0,0	1,8	0,85	yarim aylana	60	0,8	1,5
4	25,0	2,5	0,4	1,9	0,9	o'tkirlangan	45	0,9	1,7
5	30,0	3,1	0,5	2,5	1,15	to'g'ri	30	1,4	2,4
6	35	2,8	0,2	2,3	1,0	to'rtburchaklik	90	1,1	2,1
7	40,0	3,0	0,4	2,4	1,10	yarim aylana	75	1,3	2,2
8	45,0	3,4	0,3	2,9	1,05	o'tkirlangan	60	1,2	2,7
9	40,0	2,9	0,5	2,2	0,95	to'g'ri	45	1,0	2,0
10	45,0	3,5	0,6	2,7	1,2	to'rtburchaklik yarim aylana o'tkirlangan to'g'ri to'rtburchaklik	30	1,5	2,5

### 2.1. Gidravlik hisoblash misoli

1. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib kanal boshi qulog'inинг suv kiradigan eni aniqlansin:

Hisobiy suv sarfi  $Q = 25 \text{ m}^3/\text{s}$ .

Kanalda suvning chuqurligi  $H_1 = 2,8 \text{ m}$ .


Suv o'tkazgich ostonasining balandligi  $R = 0,4 \text{ m}$ .

Suv o'tkazgichdagи suvning pastki byef tomonidan chuqurligi  $h_n = 2,35 \text{ m}$ .

Suvning quyilish burchagi  $\beta = 90^\circ$ .

Suvning quyilish burchagiga kelish tezligi  $v_0 = 1,2 \text{ m/s}$ .

Hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi.



2.4-rasm. Hisobiy sxema

### 1. Suvning ostonadagi bosimi

$$H = H_0 - P = 2,8 - 0,4 = 2,4 \text{ m.}$$

### 2. Suv o'tkazgichning suvga ko'milishi sharti tekshiriladi

$$h_n > 0,8 H_0,$$

bunda  $H_0 = H + \frac{v_0^2}{2g} = 2,4 + \frac{1,2^2}{2 \cdot 9,81} = 2,47 \text{ m.}$

U holda  $h_n = 2,35 \text{ m} > 0,8 H_0 = 0,8 \cdot 2,47 = 1,98 \text{ m}$  bo'ladi, ya'ni suv o'tkazgich suvga ko'milgan bo'ladi.

$$\frac{h_n}{H_0} = \frac{2,35}{2,47} = 0,951 \text{ bo'lganda } 2.2\text{-jadvaldan } \sigma_n = 0,65 \text{ olinadi.}$$

### 3. Yon tomondan siqilish koeffitsientiga qiymat beramiz: $\varepsilon = 0,95$ .

$$\frac{P}{H} = \frac{0,4}{2,4} = 0,167 \text{ bo'lganda (yaxlitlanganda 0,2) suv sarfi}$$

koeffitsienti 2.3-jadvaldan  $t = 0,33$  ga to'g'ri keladi.

Suvning quyilish burchagi  $\beta = 90^\circ$  bo'lganda 2.3-jadvaldan tuzatma koeffitsient  $\delta = 0,86$  olinadi.

### 4. Kanal boshi qulog'ining suv kiradigan eni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$B = \frac{Q}{\delta \varepsilon \sigma_n / 2g \cdot H_0^{2/2}} = \frac{25}{0,86 \cdot 0,95 \cdot 0,37 \cdot 0,65 \sqrt{2 \cdot 9,81 \cdot 2,47^{3/2}}} = 7,4 \text{ m.}$$

Har qaysisining eni 4 ni ketadigan segment shaklidagi ikkita standart prolyot (2.5-jadval) qabul qilinadi.

Shunda suv o'tkazgich frontining umumiy eni  $B = 2 \times 4 = 8 \text{ m}$

bo'ladi.

5. Yon tomondan siqilish koeffitsientiga E.A. Zamarin formulasi yordamida aniqliq kiritamiz:

$$\varepsilon = 1 - \alpha \frac{H_0}{H_0 + \sigma} = 1 - 0,1 \frac{2,47}{2,47 + 4} = 0,962 ;$$

bunda  $\alpha = 0,1$  – yarim aylana ustuncha uchun 2.4-jadvaldan olinadi.

6. Qulqoq tuynuklarining eniga aniqlik kiritamiz.

$$B = \frac{25}{0,86 \cdot 0,962 \cdot 0,37 \cdot 0,65 \sqrt{2 \cdot 9,81 \cdot 2,47^{3/2}}} = 7,35 \text{ m.}$$

Har qaysisining eni 4 m keladigan segment shaklidagi ikkita tuynuk uzil-kesil qabul qilinadi.

Misol: Agar qulqoq zatvorlari  $h_3 = 1,0$  m balandlikka ko'tarilgan, pastki byef chuqurligi  $h_2 = 2,00$  m bo'lsa, loyi halangan qulqoq uchun oqovaning suv o'tkazish imkonini aniqlansin.

Hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi.

1. Shchitli tuynuk suvgaga ko'milgan deb faraz qilgan holda qulqoqning suv sarfi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q = \sigma \mu B h_3 \sqrt{2g z_0},$$

bunda  $\mu = 0,65$  – suv sarfi koeffitsienti; bu koeffitsientning qiymati tuynuk yuziga bog'liq bo'ladi. Tuynukning yuzi  $\omega = \sigma \cdot h_3$  dan topiladi. Misolimizda  $\omega = \sigma \cdot h_3 = 4 - 1,0 = 4 \text{ m}^2 > 2,0 \text{ m}^2$ . Shunga ko'ra suv sarfi koeffitsienti 0,65 bo'ladi (2.7-jadvalga qarang).

$$Z_0 = H - h_2 + \frac{v_0^2}{2g} = 2,40 - 2,0 + \frac{1,2^2}{2 \cdot 9,81} = 0,47 \text{ m bo'lganligi uchun m}^3/\text{s.}$$

2. Quyidagi shartdan tuynukning suv bilan ko'milishi tekshiriladi:

$$h_2 > h_{siq}^*,$$

$$h_{siq}^* = 0,5 h_{siq} \left[ \sqrt{1 + \frac{8Q^2}{gB^2 h_{siq}^3}} - 1 \right],$$

bunda  $h_{siq} = ah_3$ ;  $\alpha$  – vertikal siqilish koeffitsienti (2.8-jadvaldan

olinadi);  $\frac{h_3}{H} = \frac{1,0}{2,4} = 0,42$  bo'lganda  $\alpha = 0,633$ ; demak,

$$h_{\text{sq}} = 0,633 \cdot 1,0 = 0,633 \text{ m bo'ladi.}$$

Suvning siqilish bilan bog'liq chuqurligi topiladi:

$$h_{\text{sq}}^* = \frac{0,633}{2} \left[ \sqrt{1 + \frac{8 \cdot 13,57^2}{9,81 \cdot 8^2 \cdot 0,633^3}} - 1 \right] = 1,45 \text{ m.}$$

Demak,  $h_2 = 2,0 \text{ m} > h_{\text{sq}}^* = 1,45 \text{ m}$ , ya'ni, tuynuk, biz faraz qilganimizdek, suvga ko'miladi, qulogning suv o'tkazish imkom esa  $Q = 13,57 \text{ m}^3/\text{s}$ .

### **III BOB. GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI FILTRATSION HISOBBLASH**

Gidrotexnika inshootlarining negiz gruntlari, ko'pincha, suv o'tkazadigan bo'ladi. Faqat yoriqlari bo'lмаган qoya jinslar va zinch gilsimon gruntlarni suv o'tkazmaydigan gruntlar deb hisoblasa bo'ladi.

Yuqorigi va pastki byeflardagi suvning balandliklari farqiga teng bo'lган bosim ta'siri ostida suv inshoot negizi grunitdag'i suv o'tkazadigan g'ovaklar orqali sizadi (filtrlanadi) va harakatlanadi. Shunda inshootning suv o'tkazmaydigan qismlari shu suvning pastdan yuqoriga qarab yo'nalgan bosimi ta'siri ostida turadi. Suvning filtratsion oqimi gidrodinamik bosim kuchlari ta'siri ostida grunt zarralarini yuqoriga olib chiqishga intilgan holda pastki byefga, inshoot suv o'tkazmaydigan qismining orqasiga chiqadi (mexanik suffoziya hodisasi).

Filtratsion hisoblashdan maqsad gidrotexnika inshooti suv osti qismining inshootning mustahkamligini (ochilib qolmasligini) va grunt suffoziyasi sodir bo'lmasligini ta'minlaydigan o'lchamlarini aniqlashdan iboratdir.

Gidrotexnika inshootlarining asosiy qismi flyutbet bo'lib, u suv oqimi inshoot orqali o'tishi uchun o'zan vazifasini o'taydi. Flyutbet inshootning ish sharoitiga qarab uch qismga bo'limadi: a) Ponur qismi; b) suv urilma (vodoboy) qismi; d) suv quyilish qismi.

**a) Ponur qismi** yoki ponur inshoot oldidagi o'zanni ustki suv oqimi bilan yuvilib ketishdan saqlaydi, gidrotexnika inshootini suv olinadigan kanal bilan tutashtiradi, shuningdek, inshoot ostida filtratsion oqim yo'lini uzaytiradi. Shu tufayli suv urilish qismining o'lchamlari kichrayadi, filtratsiya sarfi va tezligi kamayadi. Rostlash inshootlari (quloqlar)da ponur uzunligini, odatda,  $N$  dan 2  $N$  gacha qabul qilinadi (bunda  $N$  – inshoot yuqorigi byefida suvning chuqurligi).

**b) Suv urilma qismi** yoki suv urilma yer usti suv oqimi energiyasini so'ndiradi va filtratsion oqim uchun havf-hatarsiz share'tug'diradi. Suv urilma chegarasida zatvorlar, ko'targichlar, xizma ko'rsatish va o'tish ko'priklari joylashgan bo'ladi. Suv urilmaning

uzunligi inshoot yuqorigi qismining o'lchamlariga bog'liq bo'ladi, biroq  $(2 \div 4) N$  dan kain bo'lmasligi kerak.

**d) Suv quyilish qismi (risberma)** shunday sharoit hosil qiladiki, bunda suv oqimining suv urilma qismi oxirida kuchaygan tezligi asta-sekin pasayib, risberma oxiriga borganda ravon tezlikka aylanadi. Risberma, odatda, suv o'tkazadigan qatlam bilan mustahkamlangan va uning ostida yotgan zamin gruntini mexanik suffoziyadan muhofaza qilish uchun teskari filtr qo'yib kuehaytirilgan bo'ladi. Quloqlarda risbermaning uzunligi pastki byefdagi suvning maksimal chuqurligi  $N_2$  ga bog'liq bo'lib, odatda,  $(3 \div 5) N_2$  ga teng qilib olinadi.

Filtratsion hisoblashning bir necha usullari mavjud bo'lib, ushbu qo'llanmada ulardan eng oddisi – chiziqli kontur bo'ylab sodir bo'ladi filtratsiyani hisoblash usuli ko'rib chiqiladi. Bu usul kapitalliligi jihatdan IV-V sinfga kiradigan inshootlarni hisoblashda, shuningdek, undan yuqori sinfdagi inshootlarni dastlabki (homaki) hisoblashda qo'llaniladi (3.1-jadval).

Bu usulga ko'ra inshoot yer osti konturining chizig'i suvning flyutbet ostida filtratsiyalashining eng havfli yo'li hisoblanadi va suv bosimining pasayishi to'g'ri chiziq bo'ylab, ya'ni inshoot yer osti konturining uzunligiga proporsional ravishda sodir bo'ladi deb faraz qilinadi (3.1-rasm).

Inshoot yer osti konturining zarur (minimal) uzunligi quyidagi formuladan topiladi:



$$L = CH,$$

bunda  $N$  – yuqorigi va pastki byefdagi suvlar gorizontining farqiga teng bo'lgan ta'sir etuvchi bosim;  $S$  – nishablik koefitsienti (3.1-jadvaldan olinadi).

Flyutbetning har qanday nuqtasiga to'g'ri keladigan filtratsion bosim quyidagi formuladan topiladi:

$$h_x = H \frac{I_x}{L_\phi},$$

bunda  $L_f$  – inshoot yer osti konturining haqiqiy uzunligi;  $I_x$  – inshoot yer osti konturining filtratsion bosim aniqlanayotgan nuqtasidan flyutbetning oxirigacha bo'lgan uzunligi.



3.1-rasm. Flyutbetning filtratsion hisobiga oid:  
a) konstruksiyasi; b) hisobiy sxemasi.

Flyutbetning qalinligi uning har qanday nuqtasida quyidagi formuladan topiladi:

$$t_x = m \frac{h_x}{\gamma_{kl} - 1},$$

bunda  $p$  – zapas koeffitsienti;  $u$  inshoot sinfiga qarab 3.1-jadvaldan olinadi;  $\gamma_{kl}$  – flyutbetga ishlataladigan materialning hajmiy massasi (beton uchun hajmiy massa  $\gamma_b = 2,3 \div 2,4 \text{ t/m}^3$ ).

## 2-nazorat ishi

